

HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI INSPEKTORLARI BILAN TERGOV ORGANLARINING JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH TIZIMIDA O'ZARO HAMKORLIGI HUQUQIY ASOSLARI

Atajanov O'tkir Mamatsalaevich

Mustaqil tadqiqotchi

Ergashov Lazizbek Obedqul o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kunduzgi

ta'lim 3-o'quv kursi 309-gurux kursanti

Annotatsiya: Ushbu maqolada huquqbuzarliklarning profilaktikasi inspektorlari bilan tergov organlarining jamoat xavfsizligi va huquqiy tartibni ta'minlash kontekstida o'zaro hamkorligi huquqiy asoslari va mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Muallif ushbu huquqni muhofaza qilish faoliyati sub'ektlarining idoralararo hamkorligini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani tahlil qiladi, ularning o'zaro hamkorligining muammoli jihatlarini aniqlaydi va huquqiy tartibga solishni takomillashtirishning yollarini taklif etadi. Profilaktik tadbirlar va dastlabki tergov o'tkazishda faoliyatni muvofiqlashtirish, axborot almashish va huquqni muhofaza qilish tadbirlarini birgalikda rejalashtirish masalalariga alohida e'tibor beriladi. Maqolada qonuniylik, operativlik va samaradorlik tamoyillariga asoslangan yagona idoralararo hamkorlik tizimini yaratish zaruriyati asoslanadi. Tadqiqot natijalari huquqni muhofaza qilish amaliyoti va ichki ishlar organlarining faoliyatini normativ-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish uchun foydalanilishi mumkin.

Kalit so'zlar: profilaktika inspektori, tergov organlari, idoralararo hamkorlik, huquqiy asoslar, huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat xavfsizligi, huquqni muhofaza qilish faoliyati, normativ-huquqiy tartibga solish, faoliyatni muvofiqlashtirish, dastlabki tergov.

ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ МЕЖВЕДОМСТВЕННОГО ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ИНСПЕКТОРОВ ПРОФИЛАКТИКЕ ПРАВОНАРУШЕНИЙ СО СЛЕДСТВЕННЫМИ ОРГАНАМИ В СИСТЕМЕ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Аннотация: В данной статье рассматриваются правовые основы и механизмы взаимодействия инспекторов по профилактике правонарушений со следственными органами в контексте обеспечения общественной безопасности и правопорядка. Автор анализирует нормативно-правовую базу, регулирующую межведомственное сотрудничество данных субъектов правоохранительной деятельности, выявляет проблемные аспекты их взаимодействия и предлагает пути совершенствования правового регулирования. Особое внимание уделяется вопросам координации деятельности при проведении профилактических мероприятий и предварительного расследования, обмену информацией и совместному планированию правоохранительных мероприятий. В статье

обосновывается необходимость создания единой системы межведомственного взаимодействия, основанной на принципах законности, оперативности и эффективности. Результаты исследования могут быть использованы для совершенствования правоохранительной практики и нормативно-правового регулирования деятельности органов внутренних дел.

Ключевые слова: инспектор по профилактике, следственные органы, межведомственное взаимодействие, правовые основы, профилактика правонарушений, общественная безопасность, правоохранительная деятельность, нормативно-правовое регулирование, координация деятельности, предварительное расследование.

Profilaktika inspektorining tergov xizmatlari bilan hamkorlikdagi faoliyati muayyan normativ hujjat bilan aniq tartibga solinmagan bo'lsada, biroq bir qator normativ hujjatlarda ushbu yo'nalishdagi hamkorlikning ayrim jihatlari tartibga solingan.

Quyida aynan mazkur normativ hujjatlarning profilaktika inspektorining tergov xizmatlari bilan hamkorlikdagi faoliyatini tartibga soluvchi normalarining mazmunini yoritishga harakat qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 36-moddasiga ko'ra tergovchi surishtiruvchi sifatida profilaktika inspektorlariga ayrim tergov harakatlarini yuritish to'g'risida topshiriq berishga haqlidir²⁸.

Tergovchi tergovning yo'nalishi va tergov harakatlarini yuritishga oid barcha qarorlarni, prokuror ruxsatini olish qonunda nazarda tutilgan hollarni istisno etganda, mustaqil ravishda qabul qiladi.

Tergovchining o'z yuritishidagi ish yuzasidan qonunga muvofiq bergan yozma topshiriqlari va chiqargan qarorlari barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan ijro etilishi majburiydir. Mazkur majburiyat bevosita profilaktika inspektorlariga ham taalluqli hisoblanadi²⁹.

Jinoyat-protsessual kodeksning 30-bobida jinoyat ishini yuritish munosabati bilan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud tomonidan belgilangan tartibda chaqirilgan shaxslar aynan ko'rsatilgan vaqtda uzrsiz sabablarga ko'ra kelmagan taqdirda majburiy keltirilishi bilan bog'liq huquqiy tartib belgilangan.

Majburiy keltirish gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining, jabrlanuvchining, guvohning protsessual harakatlarda yoki sud majlisida ishtirok etishini ta'minlash uchun, basharti ular uzrsiz sabablarga ko'ra kelishdan bosh tortganligi aniqlangan taqdirda, qo'llaniladi.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchini oldindan chaqiruvsiz majburiy keltirish ular surishtiruv, dastlabki tergov va suddan yashirinib yurgan yoki aniq yashash joyi bo'lmagan taqdirda qo'llanilishi mumkin.

²⁸ O'zbekiston Respublikasining 1994 yil 22 sentabrda qabul qilingan Jinoyat-protsessual kodeksi // URL: <http://www.lex.uz>.

²⁹ Bilolov A.B. Dastlabki tergovda maxsus bilimlardan foydalanishning ayrim xususiyatlari // Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi tinglovchilarining ilmiy maqolalari to'plami / Mas'ul muharrir yuridik fanlar doktori A.A. Otajonov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017. – 63-68 b.

Sudlanuvchining sudga kelmaganligi sababini oldindan aniqlamasdan turib, majburiy keltirishga alohida hollarda, ishni ko'rish sudlanuvchi bo'lmaganligi sababli keyinga qoldirilayotgan va bunda uning turgan joyi to'g'risida ma'lumot bo'lmagan taqdirda yo'l qo'yiladi.

Guvohga yoki jabrlanuvchiga nisbatan majburiy keltirishning qo'llanilgani ularni ko'rsatuv berishdan bosh tortganlik uchun qonunda belgilangan javobgarlikdan ozod qilmaydi.

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror majburiy keltirish to'g'risida qaror, sud esa ajrim chiqaradi. Ushbu qarorda yoki ajrimda: majburiy keltirilishi kerak bo'lgan shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi; uning protsessual mavqei; yashash yoki ish joyi; majburiy keltirish uchun asoslar; shaxsni qaerga va qachon olib kelish kerakligi; majburiy keltirish kimga topshirilganligi, ya'ni kimning zimmasiga yuklatilganligi ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Tergovchining majburiy keltirish to'g'risidagi qarori ish yuritilayotgan joydagi ichki ishlar organiga topshiriladi. Ichki ishlar organi esa tegishliligiga ko'ra, profilaktika inspektori zimmasiga vazifalar qo'yadi.

Majburiy keltirilishi lozim bo'lgan shaxsni topgan profilaktika inspektori uni qaror yoki ajrim bilan tanishtirib tilxat oladi va mazkur qarorni yoki ajrimni chiqargan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoxud sudga olib keladi. Bunda qarorga (ajrimga) shaxs topilgan vaqt va joy, uni olib kelib topshirilgan vaqt, shuningdek uning majburiy keltirilishi bilan bog'liq ariza, shikoyat va iltimoslar haqidagi ma'lumotnoma ilova qilinishi lozim.

Profilaktika inspektori ichki ishlar organi boshlig'i orqali shaxsning qochib ketganligi, ta'tilda, xizmat safarida ekanligi, og'ir kasalligi yoki boshqa sabablarga ko'ra yo'qligi oqibatida majburiy keltirishga imkon bo'lmaganligini aniqlasa, bu haqda ma'lumotnoma tuzadi hamda qarorni yoki ajrimni chiqargan surishtiruvchi, tergovchi, prokurorga yoxud sudga xabar beradi (264-m.)³⁰.

Jinoyat-protsessual kodeksning 242¹-moddasi bilan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini tanlash uchun asoslar mavjud bo'lganida uning yoshini, sog'lig'i holatini, oilaviy ahvolini va boshqa holatlarni hisobga olgan holda qamoqqa olish maqsadga nomuvofiq deb topilganligi uchun uy qamog'i qo'llanilgan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchilarning yurish-turishlarini nazorat qilish bevosita profilaktika inspektori tomonidan tergovchilar bilan hamkorlikda tashkil etiladi.

Umuman olganda, profilaktika inspektorining tergov xizmatlari bilan hamkorligi boshqa organlarning tergovchilari bilan olib boriladigan hamkorlikdan unchalik farqlanmaydi. Biroq profilaktika inspektori ham ichki ishlar organlari xodimi bo'lganligi bois, ular boshqa organlarning tergovchilariga nisbatan ichki ishlar organlarining tergovchilari bilan yaqindan va ko'pqirrali hamkorlikni amalga oshiradi³¹.

Uy qamog'ini ijro etish gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining yashash joyidagi ichki ishlar organi zimmasiga yuklatiladi.

³⁰ O'zbekiston Respublikasining 1994 yil 22 sentabrda qabul qilingan Jinoyat-protsessual kodeksi // URL: <http://www.lex.uz>.

³¹ Militsiya tayanch punktlari negizida hamkorlikni tashkil etish va boshqarish: O'quv-amaliy qo'llanma / Sh. T. Ikramov, M. Z. Ziyodullaev. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013. – 212 b.

O'ziga nisbatan uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi tanlangan shaxsga quyidagi taqiqlar (cheklovlar) o'rnatilishi mumkin:

- 1) muayyan shaxslar bilan aloqada bo'lish;
- 2) xat-xabar olish va jo'natish;
- 3) har qanday aloqa vositalaridan foydalanish va ular yordamida so'zlashuvlar olib borish;
- 4) uy-joyi tark etish.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi barcha taqiqlarga (cheklovlarga) yoxud ulardan ayrimlariga duchor etilishi mumkin.

Qamoqqa olinganning yashash joyi qo'riqlanishi mumkin. Zarur hollarda uning xulq-atvori ustidan nazorat o'rnatiladi.

Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining uy-joyidan chiqishi bo'yicha o'rnatilgan taqiqlarga (cheklovlarga) rioya etishi ustidan nazorat amalga oshirilayotganda ichki ishlar organi uning yashash joyida bo'lishini sutkaning istalgan vaqtida tekshirishga haqli.

Tekshirish kunduzgi vaqtda ko'pi bilan bir marta va tungi vaqtda ko'pi bilan bir marta o'tkaziladi.

Zarur hollarda, uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilgan shaxsga nisbatan elektron kuzatish vositalari qo'llanilishi mumkin.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchiga barcha taqiqlar (cheklovlar) yoxud ulardan ayrimlari qo'llanilishi mumkin. Uy qamog'i qo'llanilgan shaxsning yashash joyi qo'riqlanishi mumkin. Zarur hollarda uning xulq-atvori ustidan nazorat o'rnatiladi.

Uy qamog'ini ijro etish gumon qilinuvchining, ayblanuvchining yoki sudlanuvchining yashash joyidagi ichki ishlar organi zimmasiga yuklatiladi. Zarur hollarda uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilgan shaxsga nisbatan elektron kuzatish vositalari qo'llanilishi mumkin. Uy qamog'i ehtiyot chorasini samarali ijrosini ta'minlashda bir qancha muammolar mavjud. Ular o'ziga nisbatan uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilgan shaxslarning ushbu ehtiyot chorasining shartlarini yaxshi tushunmasligi, anglamasligi va shuning oqibatida u o'rnatilgan taqiqlarni buzishi mumkin³².

Bizningcha, quyidagilar uy qamog'i ehtiyot chorasini qo'llash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi:

– uy qamog'i ehtiyot chorasi qo'llanilgan shaxslarga nisbatan sud tomonidan o'rnatilgan taqiq (cheklov)larga rioya etilishini nazorat qilishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan elektron kuzatuv, audiovizual va boshqa texnik vositalarning moddiy-texnik bazasi va huquqiy asoslarini yaratish. Ya'ni uy qamog'i ehtiyot chorasi qo'llanilgan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi sud tomonidan o'rnatilgan taqiq (cheklov)larga amal qilishini samarali nazorat qilishni ta'minlash maqsadida qo'llanilishi mumkin bo'lgan audiovizual, elektron kuzatuv va boshqa texnik vositalarining ro'yxati va foydalanishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatni qabul qilish;

³² Eshkulov F.U. Uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash xususiyatlari // Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi tinglovchilarining ilmiy maqolalari to'plami / Mas'ul muharrir yuridik fanlar doktori A.A. Otajonov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017. – 74-76 b.

– uy qamog'i ehtiyot chorasini qo'llash uchun asos hisoblanuvchi shaxsning yoshi, sog'ligi holati, oilaviy ahvoli va boshqa holatlarining to'liq hamda aniq yoritilishi ushbu ehtiyot chorasini qo'llash huquqiga ega bo'lgan organlar qonun doirasidan chetga chiqishining oldini olishga xizmat qiladi;

– uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasining ijrosini nazorat etilayotganligi yuzasidan kunlik ma'lumotlarni nazoratni olib boruvchi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari xodimi (mahalla posbonlari) va hudud profilaktika inspektori bu haqida tuman (shahar) IIBlarining Navbatchilik qismiga taqdim etilish tartibi joriy etilishi nafaqat uy qamog'i ehtiyot chorasini ijrosini to'g'ri amalga oshirilishiga, balki bo'lishi mumkin bo'lgan boshqa huquqbuzarliklarning oldini olishga hamda profilaktika inspektorlarining ichki ishlar organlari bilan hamkorligi samaradorligini oshirishga ham bevosita xizmat qilgan bo'lar edi.

Jinoyat-protsessual kodeksning 296-moddasiga asosan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning zimmasiga jinoyat ishlarini yuritishda jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash majburiyati yuklatilgan.

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror jinoyat ishini tergov qilish chog'ida jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlab chiqib, tegishli davlat organiga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga, jamoat birlashmasiga, jamoaga yoki mansabdor shaxsga ana shu sabab va shart-sharoitlarni bartaraf qilish choralari ko'rish to'g'risida taqdimnoma kiritadi. Taqdimnomaning nusxasi ishga qo'shib qo'yadi.

Jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish to'g'risidagi taqdimnoma yoki xususiy ajrim yuborilgan davlat organi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi, jamoat birlashmasi, jamoa yoki mansabdor shaxs zarur choralarni ko'rishi va ko'rilgan choralarning natijalari to'g'risida kechi bilan bir oylik muddat ichida tegishincha surishtiruvchini, tergovchini, prokurorni yoki sudni xabardor qilishi shart.

Mazkur holatda profilaktika inspektorining zimmasiga terovchi tomonidan jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish to'g'risidagi taqdimnoma ijrosini ta'minlashda ikki holatda majburiyat yuklanadi.

Birinchi holat, tergovchi tomonidan jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish to'g'risidagi taqdimnoma to'g'ridan-to'g'ri profilaktika inspektoriga kiritilsa;

Ikkinchi holat, profilaktika inspektori xizmat olib borayotgan ma'muriy hududda joylashgan va faoliyat olib borayotgan davlat organi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi, jamoat birlashmasi, jamoa yoki mansabdor shaxslar tomonidan tergovchi kiritgan jinoyatning sabablarini va uning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish to'g'risidagi taqdimnomaning ijrosini ta'minlashda.

Bugungi kunda yuqorida keltirib o'tilgan har ikkila holatda ham profilaktika inspektorining mas'uliyatini kuzatish qiyin. Buning asosiy sabablaridan biri, mazkur jarayon to'liq huquqiy tartibga solinmagan. Bu borada profilaktika inspektorlarining

zimmasiga qonun hujjatlari bilan muayyan majburiya yoki vazifalar yuklatilmagan, biroq mantiqiy xulosa qilish jarayonida profilaktika inspektorlari tergovchilar tomonidan kiritilgan taqdimnomalarning ijrosini ta'minlashda ko'maklashuvchi vazifani amalga oshirishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Bu borada, ichki ishlar organlarining sohaviy xizmatlari, xususan, profilaktika inspektorlarini tergov xizmatlari tergovchilari bilan o'zaro hamkorligini tartibga soluvchi va belgilab beruvchi idoraviy normativ hujjatni ishlab chiqish ehtiyojining mavjudligi ko'zga tashlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2017-yil 12-iyuldagi «Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 151-son buyrug'ining 2-ilovasi bilan «O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2002-yil 25-fevraldagi «Militsiya tayanch punktida ichki ishlar idoralari xodimlarining ishini tashkil etish hamda jamoat tuzilmalari vakillari bilan hamkorligini ta'minlash to'g'risidagi Yo'riqnomani tasdiqlash haqida»gi 72-sonli buyrug'i» bekor qilindi.

Mazkur buyruqning bekor bo'lishi mantiqan to'g'ri qabul qilingan qaror edi. Chunki, buyruq 2002-yil qabul qilingan va mazmunan eskirgan buyruq bo'lib, uning roli ijtimoiy hayotda deyarli sezilmay qolgan edi. Biroq ushbu buyruqning o'rnini to'ldirib turuvchi yangi tahrirdagi buyruqni ishlab chiqish lozim hisoblanadi. Negaki, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2017-yil 12-iyuldagi «Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi 151-son buyrug'i sohaviy xizmatlar o'rtasidagi hamkorlikni to'liq tartibga solish imkoniyatiga ega emas. Ushbu buyruqda «Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom» tasdiqlangan bo'lib, unda ushbu bo'linmalarning faoliyati tartibga solingan xolos.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2017-yil 25-avgustdagi «Ichki ishlar organlari tomonidan huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida»gi 191-son buyrug'i esa, ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi vazifalari va vakolatlarini belgilab beradi xolos.

Taklif etilayotgan idoraviy normativ hujjatning yana bir ahamiyati shundaki, bugungi kunda islohotlar natijasida yangidan-yangi profilaktik chora tadbirlar huquqbuzarliklar profilaktikasi amaliyotiga tatbiq etib kelinmoqda. Shulardan biri, jinoyat sodir etilgan kunning ertasiga mazkur jinoyatning sodir etilishi holatini muhokama qilish amaliyotidir.

Bundan tashqari profilaktika inspektorining huquqbuzarliklarni oldini olishda tergov xizmatlari bilan hamkorligida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, farmoyish hamda buyruqlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu kabi normativ-huquqiy hujjatlarda profilaktika inspektorining huquqbuzarliklarni oldini olishdagi asosiy vazifalari belgilab berilgan. Bularga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin:

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi PQ-2833-sonli qarori. Ushbu qaror bilan asosiy ko‘zlangan maqsad: Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha Respublika idoralararo komissiyasini tashkil etish. Bu orqali qonuniylik va huquq-tartibotni ta‘minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatini muvofiqlashtirishga erishilishi ko‘zlangan. Ijro mexanizmi sifatida komissiya tomonidan qabul qilinadigan qarorlar barcha vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar tomonidan ijro etilishi majburiydir.

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021-yil 26-martda qabul qilingan «Jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6196-sonli Farmonida ichki ishlar organlarining faoliyatini tashkil etishning yangi mexanizmlari belgilangan. Ushbu Farmonning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: Mahallalarda jinoyatchilikning sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish orqali huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish. Ichki ishlar organlarining har bir bo‘limida profilaktika inspektorlarini masofadan turib murojaat yuborish va ularni ko‘rib chiqish jarayonini kuzatib borish imkonini beruvchi «Smart mahalla» axborot dasturini joriy etish. Ichki ishlar organlarining ta‘minot punktlari asosida mahalla huquq-tartibot maskanlarini tashkil etish. Ichki ishlar vazirligi tizimida yangi bo‘limlar tashkil etish: Jinoyat qidiruv bosh boshqarmasi, Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashish bosh boshqarmasi, Tezkor-qidiruv hamkorligi bosh boshqarmasini o‘z ichiga olgan Tezkor-qidiruv departamenti; Patrul-post xizmati va jamoat tartibini saqlash bosh boshqarmasi, Huquqbuzarliklar profilaktikasi bosh boshqarmasi, Yo‘l harakati xavfsizligi bosh boshqarmasi, Probaatsiya xizmatini o‘z ichiga olgan Jamoat xavfsizligi departamenti. Ichki ishlar organlarida 2 000 ta shtat birligidan iborat voyaga yetmaganlar masalalari bo‘yicha inspektor-psixolog lavozimlarini joriy etish. Toshkent shahri Ichki ishlar bosh boshqarmasi huzurida yagona tezkor boshqaruv markazini tashkil etish. Ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy-huquqiy himoyasini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish. Ushbu vazifalar ichki ishlar organlarining faoliyatini takomillashtirish, jinoyatchilikka qarshi kurashish samaradorligini oshirish va jamoat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan.

– O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi PQ-5050-sonli qarori — “Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” ichki ishlar tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan muhim hujjatdir. Qarorning asosiy yo‘nalishlari:

1. Profilaktika inspektorlarining faoliyatini takomillashtirish “Xavfsiz xonadon” va “Xavfsiz hovli” tizimlarini joriy etish: Har bir oila va xonadondagi muhitni o‘rganish va huquqbuzarliklar sodir etilishiga ta‘sir etuvchi ijtimoiy, infratuzilma va boshqa muammolarni bartaraf etish. Sud majlislarida masofaviy qatnashish: Profilaktika inspektorlarining sud majlislarida masofaviy tarzda qatnashish amaliyoti joriy etiladi.

2. Toshkent shahrida jamoat xavfsizligini ta'minlash Patrul-post xizmati batalyonlarini tuman ichki ishlar organlariga o'tkazish: Toshkent shahridagi patrul-post xizmati batalyonlari Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasining bevosita bo'ysunuvidan chiqarilib, to'g'ridan-to'g'ri tuman ichki ishlar organlari tarkibiga o'tkaziladi. Yagona tezkor boshqaruv markazi tashkil etish: Toshkent shahar Ichki ishlar bosh boshqarmasi huzurida Yagona tezkor boshqaruv markazi tashkil etilib, poytaxt hududida kriminogen va ijtimoiy vaziyatni uzluksiz monitoring qiladi.

3. Elektron tizimlarni joriy etish : Shaxslarni profilaktik hisobga olishning elektron tizimi: 2021-yil 1-iyuldan boshlab shaxslarni profilaktik hisobga olishning elektron tizimi joriy etiladi. Ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha ish yurituvi: 2021-yil 1-sentyabrgacha profilaktika inspektorlari vakolatiga kiruvchi ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha ish yurituvi to'liq elektron shaklga o'tkaziladi.

4. Mahalla huquq-tartibot maskanlari faoliyatini takomillashtirish Mahalla huquq-tartibot maskanlari rahbarlari bilan uchrashuvlar: Tuman (shahar) hokimliklari har oyda mahalla huquq-tartibot maskaniga rahbarlik qilayotgan profilaktika katta inspektori bilan shaxsan uchrashib, hududda jamoat xavfsizligini ta'minlash borasida aniqlangan muammoli masalalarni hal etish choralari ko'radi. Hisobotlarni eshitish: Xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari har yarim yilda mahalla huquq-tartibot maskaniga rahbarlik qilayotgan profilaktika katta inspektorining hududda jamoat xavfsizligini ta'minlash ahvoli bo'yicha hisobotini eshitadi va zarur choralarni belgilaydi. PQ-5050-sonli qaror ichki ishlar organlarining faoliyatini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishga qaratilgan kompleks hujjatdir. Profilaktika inspektorlarining faoliyatini yaxshilash, elektron tizimlarni joriy etish va mahalla huquq-tartibot maskanlari bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali jamoat xavfsizligini ta'minlashda samarali natijalarga erishish ko'zda tutilgan.

– 2025-yil 3-yanvardagi PQ-1-sonli qarordan ko'zlangan maqsad: Mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini oshirish. Asosiy yo'nalishlar: "Yo'l xaritasi" asosida profilaktika tizimini takomillashtirish orqali ayniqsa Fuqarolarni, yoshlar va ayollarni bandligini ta'minlash ko'zda tutilgan. Mahallalarda jinoyatchilikni oldini olish uchun kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish. Ijro mexanizmi: Hududiy ichki ishlar organlari va boshqa mas'ul tashkilotlar bilan hamkorlikda qaror ijrosini ta'minlash.

Bu borada ham profilaktika inpektorlari va tergovchilarining o'zaro hamkorligini tartibga solish ehtiyoji mavjudligi ko'zga tashlanadi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, profilaktika inspektorining tergov xizmatlari bilan hamkorligini huquqiy jihatdan to'liq tartibga solinmagan.

Bu esa ham dastlabki tergovning va ham ma'muriy hududda profilaktika inspektorlarining huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir faoliyatning samarali amalga oshirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1. O'zbekiston Respublikasining 1994 yil 22 sentabrda qabul qilingan Jinoyat-protsessual kodeksi // URL: <http://www.lex.uz>.
2. Bilolov A.B. Dastlabki tergovda maxsus bilimlardan foydalanishning ayrim xususiyatlari // Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi tinglovchilarining ilmiy maqolalari to'plami / Mas'ul muharrir yuridik fanlar doktori A.A. Otajonov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017. – 63-68 b.
3. O'zbekiston Respublikasining 1994 yil 22 sentabrda qabul qilingan Jinoyat-protsessual kodeksi // URL: <http://www.lex.uz>.
4. Militsiya tayanch punktlari negizida hamkorlikni tashkil etish va boshqarish: O'quv-amaliy qo'llanma / Sh. T. Ikramov, M. Z. Ziyodullaev. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2013. – 212 b.
5. Eshkulov F.U. Uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash xususiyatlari // Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi tinglovchilarining ilmiy maqolalari to'plami / Mas'ul muharrir yuridik fanlar doktori A.A. Otajonov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017. – 74-76 b.
6. Атажанов Ў. М. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИНИНГ ЖАМОАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДАГИ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАР //World scientific research journal. – 2023. – Т. 12. – №. 2. – С. 81-89.
7. Атажанов Ў. Шаҳар ҳудудида жамоат хавфсизлигини таъминлаш бўйича профилактика инспектори фаолиятини ҳуқуқий тартибга солишнинг бугунги ҳолати ва ўзига хос хусусиятлари //Актуальные вопросы обеспечения прав женщин и предотвращения насилия в семье в Узбекистане. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 24-30.
8. Майор А. Ў. М. ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИНИНГ МАХАЛЛА ФУҚАРОЛАР ЙИҒИНЛАРИДАГИ ҲИСОБОТ БЕРИШ ФАОЛИЯТИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ ТАҲЛИЛИ //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 11. – №. 6. – С. 117-121.
9. Адхамов, Зафар. "ҚАДИМГИ ТАЪЛИМОТЛАРДА ИЛГАРИ СУДЛАНГАН ШАХСЛАР ЎРТАСИДА ЯККА ТАРТИБДАГИ ПРОФИЛАКТИКАГА ОИД ЁНДАШУВЛАР." Академические исследования в современной науке 4.13 (2025): 189-193.
10. Қадамович Б. Ҳ. ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИНИНГ ТАРБИЯСИ ОҒИР БЎЛГАН ВОЯГА ЕТМАГАНЛАР БИЛАН ИШЛАШ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЕТИШ БЎЙИЧА ИЛҒОР ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИ //Eurasian Journal of Academic Research. – 2024. – Т. 4. – №. 4-1. – С. 95-100.
11. Ганиев Ф. Т., Давлетов Ф. О. У. РАБОТА ИНСПЕКТОРА ПРОФИЛАКТИКИ С БЕЗНАДЗОРНЫМИ И БЕСПРИЗОРНЫМИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИМИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН: ПРОБЛЕМЫ И ПРОБЕЛЫ НА ПРАКТИКЕ //Central Asian Journal of

Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №. 16. – С. 179-182.

12. Адхамов, Зафар Акбарович. "ШАХСЛАРНИ ЗЎРАВОНЛИК ХУЛҚ-АТВОРИНИ ЎЗГАРТИРИШ БЎЙИЧА ТУЗАТИШ ДАСТУРИДАН ЎТКАЗИШДА ДИНИЙ УЛАМОЛАР БИЛАН ҲАМКОРЛИКНИНГ АҲАМИЯТЛИ ЖИҲАТЛАРИ." THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY 2.20 (2024): 114-117.

13. Адхамов, З. А. (2025). ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИНИНГ НАЗОРАТ-ЛИЦЕНЗИЯ ҚОИДАЛАРИГА РИОЯ ЭТИЛИШНИ ТАЪМИНЛАШ ФАОЛИЯТИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(2-2), 165-172.

14. Мустофакулов Б. А. Ў., Шодмонов Д. Э. Ў. ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИНИНГ ПАТРУЛ-ПОСТ ХИЗМАТИ ВА ЖАМОАТ ТАРТИБИНИ САҚЛАШ БЎЛИНМАЛАРИ БИЛАН ЎЗАРО ҲАМКОРЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2025. – Т. 2. – №. 4. – С. 47-51.

15. Ниматов Ш. Н. Вояга етмаганлар ўртасида ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ҳозирги кундаги долзарб масала сифатида //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 136-140.

16. Ниматов Ш. Н. Вояга етмаганлар ўртасида ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ҳозирги кундаги долзарб масала сифатида //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 136-140.